


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

MATEMATIKA

S.S.Jo'raboyev, M.X.Abdumatalova

Tengsizliklarni isbotlashda ehtimollar nazariyasi elementlaridan foydalanish metodikasi 13

Sh.T.Karimov, J.J.Jahongirova

Teskari masalalarni yechishning chekli ayirmalar sxemasini teskarilash usuli 18

B.M.Mamadaliev, M.I.DavlatboevaAbout geometry on subspaces in 2R_5 22**A.O.Mamanazarov, Y.B.Djuraeva**

The existence of the solution of a boundary value problem for the benjamin, bona and mahony equation including the hilfer fractional differential operator 27

A.M.Mirzaqulov

Kompyuterli matematik modellashtirish asoslari 33

A.O.Mamanazarov, D.R.Ibrohimova

Vaqt yo'nalishlari turlicha bo'lgan parabolo-giperbolik tenglama uchun chegaraviy masala 38

FIZIKA-TEXNIKA

V.R.Rasulov, B.B.Axmedov, I.A.Muminov

Elektronlarning energiya spektrini Kroning va Penni usuli yordamida hisoblash 43

M.M.Sobirov, M.M.Kamolova, Q.Q.Muhammadaminov

Atmosferadagi quyosh nurlanish oqimi maydonini shakllanishiga begona aralashmalarning ta'siri 49

M.M.Sobirov, J.Y.Roziqov, Q.Q.Muhammadaminov

Yarim cheksiz o'lchamdag'i kristallarda qutblangan nurlanish oqimini ko'chirilishi 55

V.R.Rasulov, I.A.Muminov, G.N.Maqsudova

Xoll effektini brillyuen zonalari nazariyasi yordamida o'rganish 60

M.M.Sobirov, V.U.Ro'ziboyev

Yer sirtidan qaytgan quyosh nurlanish oqimini atmosferadagi nurlanish maydoniga ta'siri 64

G'.R.Raxmatov

Infragizil quritishning mahsulot sifat kattaliklariga ta'siri 70

V.U.Ro'ziboyev

"Bipolar tranzistorlarni ularning kuchaytirish xususiyatlarini o'rganish" laboratoriya ishida arduinodan foydalanish 75

J.Y.Roziqov

Quyosh nurlanishining atmosferada yutilishi va sochilishi. Zaiflashish qonuni 82

O.K.Dehkonova

Fizika ta'limi jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmasini shakllantirish 86

Q.I.G'aynazarova, T.M.Azimov

Uchlamchi qotishmalarning istiqbollari 98

B.U.OmonovBi₂Te₃/Sb₂Te₃ yarimo'tkazgich yupqa pardalarning termoelektrik xususiyatlari 103**K.E.Onarkulov, G.F.Jo'rayeva**

Afk elementlarining tuzilishi va xususiyatlarining bog'lanish o'rganish 109

З.Хайдаров, Д.Ш.Гуфронова, С.Х.Мухаммадаминов

Исследование преобразовательных и выходных характеристик системы полупроводник – плазма газового разряда с дополнительным сеточным электродом ... 116

M.Kholdorov, G.Mamirjonova

Achievements in the dehydration of fruits and vegetables and the advantages of the methods used 121

M.Kholdorov, G.Mamirjonova

Electronic conduction phenomena observed on the surface of semiconductors and metals... 124



УО'К: 202.372.29

**AFK ELEMENTLARINING TUZILISHI VA XUSUSIYATLARINING BOG'LANISH
O'RGANISH**

ИССЛЕДОВАНИЕ СВЯЗИ СТРУКТУР И СВОЙСТВ АФН ЭЛЕМЕНТОВ

**STUDY OF THE RELATIONSHIP OF STRUCTURES AND PROPERTIES OF APV
ELEMENTS**

Onarkulov Karimberdi Egamberdiyevich¹

¹Farg'ona davlat universiteti f.-m.f.d., professor

Jo'rayeva Gulnoza Fazliddinovna²

²TATU farg'ona filiali, katta o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada strukturaviy jihatdan juda tartibsiz bo'lgan anomal fotovoltaikali yarimo'tkazgich yupqa pardalarda anomal fotokuchlanish (AFK) hosil bo'lishi nazariyalari bevosita amalda olingan yupqa pardalarning parametrlari acosida tahlil qilingan, hamda kristallitlar chegarasini xarakterlovchi geometrik kattaliklar, kristallizatsiya frontlarining to'qnashuvi chegarasida hosil bo'ladigan sirt holatlari haqida fikr yuritilgan.

Аннотация

В данной статье анализированы теоретические представления появления аномальной фотонапряжения (АФН) в структурно неоднородных полупроводниковых пленках с аномальной фотовольтаики на основе параметров тонких пленок, непосредственно полученных на экспериментах, а также обсуждены геометрические величины характеризующие границу кристаллитов, поверхностные состояния образующуюся на границе столкновения фронтов кристаллизации.

Abstract

This article analyzes theoretical concepts of the appearance of anomalous photovoltage (APV) in structurally inhomogeneous semiconductor films with anomalous photovoltaics based on the parameters of thin films directly obtained in experiments, and also discusses the geometric quantities characterizing the crystallite boundary, the surface state formed at the boundary of the collision of crystallization fronts.

Kalit so'zlar: anomal fotovoltaika, anomal fotokuchlanish, kristallizatsiya fronti, orientatsiya, tekstura, kristallitlar chegarasi, dislokatsiya, molekulyar oqim.

Ключевые слова: аномальная фотовольтаика, аномальная фотозэдс, фронт кристаллизации, ориентация, текстура, граница кристаллитов, дислокация, молекулярный поток.

Key words: anomalous photovoltaics, anomalous photovoltage, crystallization front, orientation, texture, crystallite boundary, dislocation, molecular flow.

KIRISH

Ma'lumki, anomal fotovoltaika nazariyasida qatlam qalinligi muhim parametrdir va shuning uchun yupqa pardalar ko'pincha nazariy tahlillarni eksperimental tekshirish uchun qulay vositadir. Bunda, aniq natijalarga erishish uchun yupqa pardalarning strukturaviy xususiyatlarini doimiy ravishda saqlash kerak. Bu vakurmdagi yupqa parda hosil bo'lish jarayoni va materialning bug'lanish parametrlariga bog'liq bo'ladi [1].


ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA


Alovida sharoitlarni hisobga olmasa, moddaning qotishida "tuguncha"lar deb ataluvchi ko'plab kristallanish markazlarida o'z-o'zidan amalga oshadi. Qo'shni ikkita "tuguncha"lar o'sib borib kristallizatsiya frontlari to'qnashadi va umumiyl sirtni hosil qiladi. Bu sirtni biz kristallitlar chegarasi deb ataymiz. Har bir "tuguncha" hosil bo'layotgan kristallitga o'zining xususiy kristallografik orientatsiyasini o'rnatadi. Kristallizatsiya frontlarining to'qnashuvi chegarasida ular individual orientirlangan, lekin hosil bo'ladigan kristallitlar chegarasi ma'lum qonuniyatlarga

bo'ysunadi. Bu kristallitlar o'sishi tasodifiy bo'lmasligini bildiradi. Birinchidan, hech bo'lmasa kristallarda bitta kristallografik yo'nalish mos kelishi kerak. Bu holat taglik orientatsiyasi yoki teksturasi, shuningdek temperatura gradienti yoki massa o'tishi yo'nalishlari bilan bog'liq belgilanadi. Masalan, orientirlangan tagliklarda o'stirilgan katamlarda kristallitlar molekular oqimni tushish yo'nalishi bo'ylab orientirlanadi (massa o'tishi yo'nalishi). Shunday qilib, kristallitlarning shunday tartibda joylashuvida namoyon bo'ladigan, ya'ni ba'zi kristallografik o'qlarning yo'nalishi bir-biriga yaqin bo'ladigan yoki umuman aytganda mos keladigan, kristallitlar chegarasini xarakterini belgilaydigan geometrik (strukturaviy yoki morfologik) faktor polikristallarning teksturasi hisoblanadi. Zich teksturalangan polikristallarning asosiy strukturaviy xususiyati ularda mavjud bo'lgan donachalararo kontaktlar kichik o'rta va katta burchakli kristallitlar chegarasi bo'lib, ularni sirti barcha kristallitlar yo'nalishiga (masalan o'sish yo'nalishiga), paralelligida bo'ladi. Bunda asosan kichik burchakli chegaralar hosil bo'ladi. Qolgan katta burchakli chegaralar yaqqol tekis sirlarni hosil qiladi.

Bularning izohli ko'rinishi bo'lib ba'zi polikristall ob'ektlarning strukturasini mikroskopik tadqiqotlari natijalari keltirilgan 1- rasmlar xizmat qiladi. 1a- rasmdan ko'rindiki kristallitlar molekular oqim yo'nalishi bo'ylab orientirlangan chegaraga ega. 1b-1-B rasmlar esa polikristall yupqa qatlamlar strukturasining kondensatsiya sharoitlarini optimallashganida (taglik temperaturasini T_t orttirilgan) tartiblanishi haqida ma'lumot beradi [1,2].

Kristallitlar chegarasini xarakterlovchi geometrik kattaliklar sifatida quyidagilar kiritiladi: ikkita kristallitlarning fazodagi o'zaro orientatsiyasini belgilovchi 3 ta θ burchak, kristallitlar chegarasi tekisligini orientatsiyasini belgilovchi 2 ta burchak. Egrilangan chegaralar yassi qismlardan tuzilganligini isbotlangandan kelib chiqib, odatda yassi kristallitlar chegarasini ko'rib chiqish bilan kifoyalaniladi.





1-rasm. Polikristall yupqa pardalarning elektron mikroskopik tasvirlari.

Bir necha gradusdan katta bo'limgan, Θ ning kichik qiymatlarida Shokli-Rid dislokatsiyasi modeli qo'llaniladi. Unga ko'ra kristallitlar chegarasi bitta tekislikda yotgan (dislokatsion tizim) yoki turli burchak vektorli (dislokatsion setka) bir nechta kesishuvchi majmualar ko'rinishida bo'ladi. $\Theta \geq 10^\circ$ bo'lganda dislokatsiyalar shunchalik darajada zinch bo'ladiki, kristallitlar chegarasini qator bir-biriga bog'liq bo'limgan tizim sifatida ko'rish mumkin bo'lmaydi.

Katta burchakli orientatsiyalashmagan kristallitlar chegarasini geometrik ifodalash uchun mos tugunlar konsepsiysi qo'llaniladi. Uning asosi quyidagicha: mavjud bo'lgan qo'shni kristallitlar orasida o'zaro mos bo'limgan orientatsiyalilarini to'plami bo'lib, ularning panjaralarini birlashishida ma'lum bir qism tugunlar mos keladi va mos tugunlar panjarasi (inglizcha coincidence site lattice) deb ataluvchi tizim hosil qiladi. Θ_n ning ushbu qiymatida kristallitlar chegarasining shunday

orientatsiyasi va shunday birlashini energetik jihatdan qulay bo'lib, bunda imkoni boricha ko'proq mos tugunlar joylashadi [3].

Strukturaviy jihatdan juda tartibsiz bo'lgan yarimo'tkazgich anomal fotokuchlanishli (AFK) yupqa pardalari boshqa namunalardan farq qilishi mumkin. Masalan, Strukturasi nisbatan ko'proq tartibsizlangan(bir jinsli emaslik, anizatropililik) yarim o'tkazgich yupqa pardalar monokristal na'munalaridan keskin farq qiladi. Yupqa pardalarda tunnel effekti kabi hodisalar kuzatilishi, magnit maydonning kirib borish chuqurligini qalinligi bilan solishtirish mumkinligi, elektr qarshiligining oshishi, magnitooptik xususiyatlarning o'zgarishi ularning qalinligi bilan bog'liq. Shuningdek, qalinlikning kamayishi zaryad tashuvchilarning sirtda harakatlanishining ortishi bilan bir qatorda, elektr qarshiligining ham oshishiga olib keladi. Qatlam yuzasining elektron mikroskopik tadtqiqotlari natijalari, alohida mikrokristallarning o'lchamlarini baholash va qatlam qalinligining qarshiligi va fotovoltaik qiymatlari o'tasidagi bog'liqlikni kuzatish AFK effekti past o'lchamli yupqa pardalarda kuzatilishini ko'rsatdi [3].

Tabiiyki, qatlam qalinligi oshishi bilan qatlam hajmining ta'siri ortadi. Kichik qalinliklarda alohida mikrokristallitlarning orasidagi o'tish qarshiligi muhim rol o'ynay boshlaydi [4].


NATIJA VA MUHOKAMA

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, har bir yarim o'tazgich material AFK yupqa pardasi uchun AFK effekti kuzatiladigan chegaradagi qalinlik mavjud.

AFKga ega bo'lgan yupqa pardalar moddaning dielektrik asosga (masalan, shisha) vakuumda termik kondensatsiyasi orqali olinadi. Bunday yupqa pardalar molekulyar oqimlar yo'naliishi bo'yicha doimiy ravishda o'sib boradi va ustunsimon tuzilishga ega bo'ladi. Molekulyar oqimning yo'naliishini o'zgartirish, masalan, taglik holatini o'zgartirish orqali – asosda tekisligi molekulyar oqim yo'naliishiga perpendikulyar bo'limgan kristallitlar o'sishi, turli yo'naliislarda xususiyatlari aynan bir xil bo'limgan o'zgarishlarga olib keladi.

Har bir kristallitning yuzasi "g'adir-budir" ekanligi eksperimental ravishda tasdiqlangan . Bu "tabiiy g'adir-budirlik" deb ataladigan relefdir, bu ham erkin energiyaning minimallik talabiga bog'liq. G'adir-budirlik, shuningdek, kristallitlar chegarasida (KCH) sirt holatlarini (SH) paydo bo'lishining sababchisi bo'lishi mumkin .

Yupqa pardalardagi kristallitlar sirtining individualligini e'tiborga olinsa, optik hodisalarda yorug'likning KCH orqali o'tish xususiyatlarini, xusan, uning qaytarilishini hisobga olish kerak. KCHdagi g'adir-budirlik ularning qaytaruvchanlik darajasining asosiy sababi bo'lishi mumkin (2-rasm).



2-rasm. Molekulyar oqimning taglik tekisligiga perpendikulyar tushishi sharoitida olingan yupqa pardaga i burchak ostida tushgan tekis-parallel yorug'lik nurining yutilishi . r – sinish burchagi; d - yupqa parda qalinligi; α - yorug'likni yutilish koeffitsienti.

2-rasmdan kelib chiqadigan asosiy xulosa, KCH tomonidan unga tushgan yorug'likning qaytishi tufayli yupqa pardaning hajmi bo'yicha yorug'likning yutilishi bir hil bo'lmaydi. Yorug'lik nurining normal tushishi paytida yuzaga keladigan simmetriya sirtga burchak ostida yoritilganda buziladi va yorug'lik va soyaning ustivor yutilish joylari shakllanishiga olib keladi. Bu bunday

FIZIKA-TEXNIKA


tuzilmalarda AFK paydo bo'lishining tabiiy sabablaridan biridir. KCH orqali soya hududiga kirib boradigan nurning intensivligi yupqa pardaga tushadigan birlamchi nurning intensivligidan pastroq intensivlikka ega.

Shunday qilib, AFKnинг paydo bo'lishiga sabab, KCHda nuring yoritilishidagi assimetriyadir. Qilingan xulosalarini aniqlash uchun biz CdTe yupqa pardalarida AFK effektining burchakka bog'liqliklarini o'rgandik. Yupqa pardalar taglikka molekulyar oqimning tushish burchagini (φ) o'zgartirish orqali olingan. Bunda φ taglik tekisligi va molekulyar oqim ($0 \leq \varphi \leq 90^\circ$) orasidagi o'tkir burchak. Filmlar aniq polikristal tuzilishga ega edi. KCH dagi SH larining kontsentratsiyasini, energiya spektrini va boshqa xususiyatlarini o'zgartirish uchun namunalarga havoda qizdirish bilan ishlov berildi.


3-rasmda AFK amplitudasining (V_{AFK}) taglikka perpendikulyar bo'lgan molekulyar oqimni o'tqazish natijasida olingan yupqa pardalar uchun tushayotgan yorug'lik oqimi burchagiga (α) bog'liqligi ko'rsatilgan ($\varphi=90^\circ$). Yoritish burchagi $0 \leq \alpha \leq 180^\circ$ oralig'ida o'zgardi, shuning uchun $\alpha = \varphi=90^\circ$ da yorug'lik KCH tekisligiga parallel ravishda tarqaladi. Rasmdan ko'rindiki V_{AFK} belgisining inversiyasi $\alpha = \varphi = 90^\circ$ da sodir bo'ladi. AFKnинг xarakteristikasi $V_{AFK}(\alpha)$ inversiya nuqtasiga (molekulyar oqimning tushish yo'nalishi) nisbatan qat'iy simmetrikdir. Inversiya nuqtasining chap va o'ng tomoniga ta'sirning amplitudasi bir xil. Qizdirish bilan ishlov berish jarayonida faqat ta'sir amplitudasining oshishi kuzatiladi, bu SH parametrlarining o'zgarishiga olib keladigan diffuziya jarayonlari tufayli KCH elektron xususiyatlarining o'zgarishi bilan bog'liq.

Ushbu ma'lumotlardan ko'rindib turibdiki, ta'sirning eksperimental namoyon bo'lishida geometrik omil aniq namoyon bo'ladi:

1) molekulyar oqim va u tushayotgan tekislik-parallel yorug'lik yo'nalishlari to'g'ri kelganda ta'sirning inversiyasi yana kuzatiladi; tajribalarimiz geometriyasida $\varphi + \alpha = 180^\circ$ shart bajarilganda (4-rasm);



3-rasm. Taglik tekisligiga perpendikulyar molekulyar oqim tushisganda yupqa pardalarda fotokuchlanishning burchakka bog'lanishi. 1 - yangi otqazilgan yupqa parda; 2.3 - mos ravishda 200 va 300 °C da havoda qizdirish bilan ishlov berishdan keyin.




4-rasm. Tajribaning geometriyası

2) molekulyar oqimning har bir tushish burchagi sohasidagi burchak xarakteristikalarini ta'sir belgisining inversiya nuqtasiga nisbatan assimetrik bo'ladi (birinchi navbatda, bu ta'sir amplitudasiga tegishli); Buning sababi shundaki, o'ngdan yoritilganda, bizning terminologiyamizdagi yupqa parda hajmining katta qismi soya maydoniga aylanadi;

3) ta'sirning maksimal amplitudasi kuzatiladigan yorug'likning tushish burchagi molekulyar oqimning tushish burchagidan keyin keladi; Bundan tashqari, AFK ning maksimalligi burchak holatiga empirik bog'liqlikka ega bo'ladi.

Chapda $\alpha_1 \left(V_{AFK}^{MAX} \right) \approx (180-\varphi)/2$ va o'ngda $\alpha_2 \left(V_{AFK}^{MAX} \right) \approx \varphi/2$, shunday qilib $\alpha_1 \left(V_{AFK}^{MAX} \right) + \alpha_2 \left(V_{AFK}^{MAX} \right) = 90^\circ$.

AFK effekti yupqa pardaning yupqaroq qismidagi qo'shni potensial to'siqqa diffuziyalanadigan fotoelektronlarni hosil qiladi (5-rasm).



5-rasm. Yoritilgan p -CdTe yupqa pardasining zonaviy tuzilishi

XULOSA

Qizdirish bilan ishlov berish paytida ta'sir amplitudasining oshishi (3-rasm 2, 3 egri chiziqlar) KCH bo'ylab kislород atomlarining diffuziyalanishidan hosil bo'lgan kislород SH tufayli KCHdagи potentsial to'siq balandligining o'zgarishi bilan bog'liq. Inversion kanalda zonalar egrilanishi amplitudasining oshishi elektronlar konsentratsiyasining oshishiga olib keladi, natijada bu

FIZIKA-TEXNIKA

kanaldagi elektronlarning umumiy sonidagi fotoelektronlarning ulushini pasayishiga olib keladi. Ionizasiyalashgan elektronlar fotoelektronlarni itaradi va bu AFK effekti amplitudasining pasayishiga olib keladi.

Yangi o'tqazilgan va kam ishlov berilgan yupqa pardalar uchun V_{AFK} (α) bog'lanishda chap va o'ng tomonda V_{AFK} maksimal qiymatining qo'shimcha do'ndliklarning paydo bo'lishi, ehtimol, asosiy fototashuvchilarning effektga qo'shgan hissasi bilan bog'liq bo'ladi. Ularning paydo bo'lishi va diffuziyalanish jarayonlari namunalarning burchakli yoritilishida yorug'lik va soya sohalarning ustuvor yutilish sohalarini shakllantirish bilan bog'liq. Shunday qilib, keltirilgan nazariy fikrlar, bu erda muhokama qilingan tajribalar bilan deyarli to'liq mos kelishuvni ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Колосов В.Ю., Веретенников Л.М., Старцева Ю.Б., Швам К.Л. Электронно-микроскопические исследования микроструктуры поликристаллических конденсаторов на основе халькогенидов: влияние состава и толщины на внутреннее искривление кристаллической решетки. // ФТП.- 2005.- Т.39. В.8.
2. Наймарк О.Б. Нанокристаллическое состояние как топологический переход в ансамбле зернограницых дефектов. // ФММ. 1997. Т.84. №4. С.5-21.
3. Неустроев Л.Н., Осипов В.В., Онаркулов К.Э. Исследование внутренней структуры фоточувствительных поликристаллических пленок сульфида свинца с помощью вакуумного прогрева. ФТП.1987.Т.21В.7.С. 5-12.
4. Атакулов Ш.Б., Зайнолобидинова С.М. Влияние структурных особенностей поликристаллических пленок полупроводников на формирование эффекта аномального фотонапряжения. I. Механизм явления. // Физика и техника полупроводников, 2011, № 46-(6).-с.728-733.